

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI**

**IQTISODIYOT VA BUXGALTERIYA HISOBI KAFEDRASI**

**60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)” ta’lim yo‘nalishi  
205-guruh talabalari uchun**

**TIRKASHEV FARHOD MAHMUDOVICHning**

**“Makroiqtisodiyot” fanidan**

**“Davlat budjeti, soliqlar” mavzusida ochiq amaliy darsining ishlanmasi**

**Samarqand – 2023**

**Tuzuvchi:**

F.M.Tirkashev – “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti

**Taqrizchilar:**

**M.Mardonov** – TDIU Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi dotsenti.

**I.Salamov** – SamDVMCHBU “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

**Kelishildi: O‘quv-uslubiy boshqarma  
boshlig‘i, professor v.v.b.**

**R.F.Ro‘ziqu洛v**

## “Davlat budjeti, soliqlar” mavzusidagi amaliy mashg’ulot o‘tish texnologiyasi

|   |  |
|---|--|
| <i>Amaliy mashg’ulot vaqtisi:</i> 2 soat  | <i>Talabalar soni:</i> 21  |
| <i>Amaliy mashg’ulot rejasi/ amaliy mashg’ulotining tuzilishi</i>   | 1.Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari<br>2. Soliq va soliq turlari.  |
| <i>O‘quv amaliy mashg’uloti maqsadi:</i>  | Talabalarga davlat budjeti, uning tuzilishi, soliqlar va soliq tizimi, davlat budgetining daromadlari, davlat budgetining xarajatlari,firmalarning soliq tolovlarini hisobotlarini soliq organlari hisobotlariga biriktirilishini amaliy o‘rgatish hamda nazariy bilimlarni amaliyotda tatbiq etish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat |
| <i>Pedagogik vazifalar:</i><br>- davlat budgetining asosiy daromadlari va xarajatlari mazmunini amaliy mohiyati tushuntirish;<br>- davlat soliqlarini yuridik va jismoniy shaxshlar kesimida amaliy tushuntirib uning tuzilishi, mohiyati va mazmunini o‘rgatish. | <i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i><br>- Davlat budgetining daromadlari va xarajatlari tizimining iqtisodiy mohiyatini tushunadi;<br>- soliqlar tizimi va uning turkumlarini tasniflaydi va o‘rganadi;  |
| <i>O‘qitish metodlari</i>   | Muammoli amaliy mashg’ulotlar, aqliy hujum.  |
| <i>O‘qitish vositalari</i>  | Amaliy tarqatma materiallar matni, noutbuk, videoproektor va boshq.  |
| <i>O‘qitish sharoiti</i>  | Videoproektor bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xonalar  |
| <i>Qaytar aloqaning yo‘l va vositalari</i>  | Og‘zaki nazorat: Blits-so‘rov, test.   |

## “Davlat budjeti, soliqlar” mavzusidagi ma’ruzani o‘qitishning texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqtি                           | Faoliyat mazmuni<br>(Pedagogik texnologiya – muammoli, klaster)   |  |
|--|---|--|
|  | O‘qituvchi  | Talabalar  |
| 1-bosqich.<br>O‘quv mashg’ulotiga kirish (10 daq.) | 1.1.Amaliy mashg’ulot mavzuning nomi va rejasi e’lon qilinadi.<br>1.2.Amaliy mashg’ulot mavzusini to‘liq o‘zlashtirish uchun asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar beriladi.<br>1.3. Amaliy mashg’ulot mavzusida ko‘p ishlataligan atama va iboralar bilan | Tinglaydilar<br>Yozib oladilar<br>Ma’ruza matnini ARMdan (O’UM, darslik, o‘quv qo’llanma) oladilar |

|                                    |   |   |
|------------------------------------|---|---|
|                                    | tanishtiriladi<br>1.4.Amaliy mashg'ulot mavzusi davomida o'rganilayotgan muammolarga to'xtalindasi<br>1.5.Topshiriqlarga javob berish tartibi tushuntiriladi  | Amaliy mashg'ulot bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar  |
| 2-bosqich.<br>Asosiy<br>(60 daq.)  | 2.1.Amaliy mashg'ulot ma'ruza matni tarqatiladi.<br>2.2.Amaliy mashg'ulot bo'yicha qo'yilgan reja savollari keltirilgan taqdimotlar videoproyektor orqali ko'rsatiladi, har bir savol bo'yicha xulosa qilinadi hamda "bumerang" usulida savol bilan murojaat qilinadi<br>2.3.Doskada asosiy faktlar, soliqlarni hisoblash bo'yicha hamda soliqlarni hisoblash jarayonlari hayotiy aniq misollar ishlab chiqarish bilan bog'liq holda yozib ko'rsatiladi | Tinglaydilar<br>Yozib oladilar<br>Muhim joylarini belgilab oladilar<br>Tushunmagan joylaridan savollar berishga tayyorlanadilar |
| 3-bosqich.<br>Yakuniy<br>(10 daq.) | 3.1.Amaliy mashg'ulotda o'rganilgan soliqlar bo'yicha ko'tarilgan muammolar va auditoriyaga tashlangan savollar bo'yicha xulosalar qilinadi<br>3.2. Talabalar qiziqqan va tushunmagan masalalar bo'yicha savollariga javob oladilar.  | Savol beradilar.<br>Vazifani yozib oladilar   |

### **Amaliy mashg'ulot mavzusi: Davlat budgeti, soliqlar**

#### **Reja**

- 1.Davlat budgeti daromadlari va xarajatlari
2. Soliq va soliq turlari.

**Tayanch iboralar:** *Davlat budgeti daromadlari,davlat budgeti harajatlari, daromad solig'i, ijtimoiy to'lov, aylanma solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, yer solig'i, mol mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, aksiz solig'i, soliq hisobotlari.*

#### **1. Davlat budgeti daromadlari va xarajatlari.**

**Davlat byudjeti** — Davlatning muayyan vaqt (odatda bir yil) uchun mo'ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui. Davlat byudjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat moliyasining bosh bo'g'ini hisoblanadi. Davlat byudjeti tarkiban umum davlat (yoki markaziy) byudjeti (mamlakat miqyosidagi umumiyl daromadlar va xarajatlar yig'indisi) va mahalliy (munitsipal) byudjet (hududiy tuzilmalar — o'lka, viloyat, tuman va h.k. doirasidagi pul daromadlari va xarajatlari)ga bo'linadi. Ikki turdag'i byudjetlar nisbati

mamlakatning ichki sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Davlat jamiyatga ijtimoiy xizmatlar (milliy xavfsizlikni ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, atrof-muhitni himoya qilish, nochorlarga yordam berish, aholiga bepul ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va b.) ko‘rsatadi va bularning barchasi xarajat talab qiladi. Byudjet daromadlari soliqlar, soliqdan tashqari yig‘imlar, davlat zayomlaridan tushgan pul, davlat mulkini sotishdan yoki ijaraga berishdan kelgan mablag‘lardan shakllanadi. Byudjet daromadining aholi jon boshiga hisoblangan miqdori mamlakatning byudjet salohiyati (potensiali) deb yuritiladi va bu byudjet daromadining umumiy hajmiga hamda aholining soniga bog‘liq. Byudjet xarajatlari uning daromadidan ortib ketsa, byudjet taqchilligi, ya’ni kamomadi yuzaga keladi. Kamomad miqdori mamlakat yalpi millim mahsulotning 3—3,5 % ga teng bo‘lishi me’oriy hisoblanadi. Byudjet kamomadining g‘oyat oshib ketishi va uni daromad bilan ta’minlash mumkin bo‘limganda byudjet xarajatlari qisqartiriladi. Markaziy, mahalliy davlat byudjetilari va davlat byudjetidan tashqari fondlar (davlatning muayyan maqsadli fondlari, maxsus maqsadli soliqlar, zayomlar, byudjetdan subsidiyalar hisobiga yaratiladigan maxsus fondlar) yig‘indisi davlatning yigma byudjetini tashkil etadi. Davlat byudjeti, odatda, joriy yilda kelgusi yil uchun tuziladi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida u chorak yoki yarim yilga tuzilishi ham mumkin. Davlat byudjetini hukumat tuzadi va yuqori qonun chiqaruvchi organ (parlament)tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat o‘z iqtisodiy funksiyalarini bajarishda moliyaviy manba sifatida davlat budjetiga tayanadi. Davlat byudeti mamlakat moliya tizimining markaziy unsuri bo‘lib makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

**Soliq-** davlat yoki mahalliy boshqaruv faoliyatini ta‘minlash uchun davlat organlari tomonidan tashkilot va jismoniy shaxslardan yig‘ib olinadigan to‘lovga aytiladi. Davlat byudjeti daromadlar qismining asosiy manbai soliqlar hisoblanadi. Shuningdek, soliq iqtisodiy turkum sifatida, sof daromadning bir qismini budjetga jalb qilish shakli bo‘lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Soliqning kelib chiqishi davlatning paydo bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, juda qadimiylar tarixga ega. Tarixiy manbalarda bundan 3760-yil muqaddam Bobil davlatida Hammurapi qonunlari bilan soliqning joriy etilgani to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi. Hozirgi davrda ham davlat bajaradigan vazifalarni mablag‘ bilan ta‘minlash muammosi soliqning obyektiv zarurligini keltirib chiqaradi. Undirish usuliga ko‘ra, to‘g‘ri va egri soliqga bo‘linadi. To‘g‘ri soliq mol mulk va daromadga bevosita joriy qilinadi va soliq to‘lovchi tomonidan oraliq vositachilarsiz to‘lanadi. Keng tarqalgan turlari: qo‘shilgan qiymat solig‘i, daromad solig‘i, meros hamda hadya solig‘i, tovar aylanmasi solig‘i, savdo solig‘i, eksport import solig‘i va boshqa egri soliq (aksizlar) tovar (xizmat)lar narxlariga yoki tariflarga kiritish mo‘ljallangan va keyinchalik tovarlar iste’molchilariga yuklanadigan soliq Davlat tuzumi xususiyatlariga ko‘ra, soliq tizimi umum davlat (markaziy) va mahalliy (ma’muriy-hududiy birliklar) soliq va yig‘imlardan tashkil topadi.

O‘zbekiston Respublikasida Soliq tizimining huquqiy asoslari, uni to‘lovchilarning huquqlari hamda majburiyatları, soliq ishlarini yuritish tartiboti 1997-yil 24 aprelda qabul qilingan va 1998-yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O‘zbekiston

Respublikasining Soliq kodeksi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan umum davlat soliqi: yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) soligi; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi; qo'shilgan qiymat solig'i; aksiz solig'i; yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq; ekologiya solig'i; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Umum davlat solig'i har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi. Mahalliy soliq va yig'imlar mol mulk soliq; yer solig'i; reklama solig'i, avtotransport vositalarini sotganlik uchun soliq, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligi, savdosoti qhuquqi uchun yig'im; obodonchilik ishlari uchun yig'im va boshqa mahalliy soliq va yig'imlar mahalliy byudjetga o'tkaziladi.

Davlat tomonidan undirilgan soliq byudjet vositasida qayta taqsimlanib, soliq to'lovchilarga sog'liqni saqlash, maorif, ilm-fanni rivojlantirish, mudofaa, xuquqni muhofaza qilish kabi ijtimoiy zarur davlat xizmatlari orqarli bilvosita yo'llar bilan qaytadi.

O'zbekistonda soliq nazariyasi va amaliyotiga oid materiallar, shu sohaga doir boshqa masalalar „Soliq to'lovchining jurnali“da (1995-yildan o'zbek va rus tillarida chiqadi) yoritiladi. 1-jadvalda ko'rinish turibdiki, hozirgi kunda soliqlar kodeksda 6 ta umum davlat (respublika) soliqlari va 5 ta mahalliy soliqlar kiradi.

### **1-jadval**

#### **O'zbekiston Respublikasida soliqlar tizimi tarkibi**

| <b>Umum davlat soliqlari.</b>                     | <b>Mahalliy soliqlar va yig'imlar</b>  |
|---|--|
| 1. Yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq. | 1. Mol-mulk solig'i.   |
| 2. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq.            | 2. Yer solig'i.  |
| 3. Qo'shilgan qiymat solig'i.                     | 3. Yagona soliq.   |
| 4. Aksiz solig'i.                                 | 4. Obodonlashtirish va infiratuzilmani rivojlantirish solig'i  |
| 5. Yer osti boyliklaridan foydalananish solig'i.  | 5. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq |
| 6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.  | 6. Boshqa to'lovlar.   |
| 7. Bojxona boji.                                  |  |
| 8. Davlat boji.                                   |  |
| 9. Boshqa Boshqa to'lovlar.                       |  |

#### **1-Topshiriq**

1.Ishlab chiqarish korxonasi xodimiga bir oyda 2 475 000 so'm oylik ish haqi hisoblangan.Ushbu hisoblangan oylik ish haqidan jismoniy shaxslarning daromad solig'i, ijtimoiy to'lov va fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya badaliga ajratma to'lovlarini hisoblab hodimning qo'lga oladigan ish haqi summasini aniqlang.

## 2-Topshiriq

2.Ishlab chiqarish korxonasining bir oylik tovar mahsulot xizmatlar kirimi 1 475 934 500 so'mni tashkil qiladi.Korxonaning o'sha oydagisi savdo realizatsiyasi(sotilgan mahsulot) 987 564 914 so'm bo'lsa Qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlang.

### Test topshiriqlari:

#### 1.Davlat budjeti nima?

- \*A) davlatning muayyan vaqt (odatda bir yil) uchun mo'ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui.
- B) davlatning muayyan vaqt (odatda bir yil) uchun mo'ljallangan pul daromadlari
- D) davlatning muayyan vaqt (odatda bir yil) uchun mo'ljallangan xarajatlari majmui.
- E) Davlatning soliq siyosati.

#### 2.Davlat budjeti daromadlari nima?

- \*A) bu davlat tomonidan davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun soliqlar va soliq bo'limgan manbalardan olinadigan pul.
- B) bu davlat tomonidan barcha sohalarni moliyalashtirish uchun soliqlar va soliq bo'limgan manbalardan olinadigan pul.
- D)Bu davlat tomonidan unduriladigan soliqlar
- E) bu davlat tomonidan barcha sohalarni moliyalashtirish uchun soliqlar va soliq bo'limgan manbalardan olinadigan pul.

#### 3.Aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

- \*A)1992 yil 1 yanvardan
- B)1995 yil 1 yanvardan
- D)1999 yil 1 martdan
- E)1996 yil 1 yanvardan

#### 4. Soliq stavkasi nimani ifodalaydi.

- \*A) Soliq manbaiga o'rnatilgan meyorini
- B)Soliq bazasi (ob'ekti) ning bir qismini budgetga olishni.
- D)Soliq imtiyozlari bo'yicha chegirmalarni.
- E) Bir xil tartibda soliq undirishni

#### 5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- \*A) 1997 yil 29 avgust;
- B) 1991 yil 15 fevralda;
- D) 1997 yil 24 aprel
- E) 1992 yil 27 oktabrda

**6. Respublikamizda birinchi Soliq kodeksi qachon qabul qilingan va qachondan kuchga kirgan?**

- \*A) 1997 yil 24 aprel- 1998 yil 1 yanvar
- B) 1996 yil 15 fevral – 1996 yil 1 mart
- D) 1997 yil 15 dekabr – 1998 yil 1 yanvar
- E) 1998 yil 24 aprel – 1999 yil 1 yanvar

**7.Yangi taxrirdagi amaldagi Soliq kodeksi esa qachon qabul qilingan va qachondan amalga joriy etilgan?**

- \*A) 2020 yil 1 yanvar
- B) 2007 yil 24 dekabr
- D) 2008 yil 1 yanvar
- E) 2007 yil 30 noyabr

**8.Soliq imtiyozining turlarini ko‘rsating?**

- \*A) Butunlay, vaqtinchalik, qisman;
- B) Butunlay ozod etish, oz muddatga ozod etish;
- D) Vaqtincha, uzoq muddatga, to‘liq;
- E) Qisqa muddatga, uzoq muddatli, butunlay

**9.O‘zbekiston rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar deklaratsiya bo‘yicha hisoblangan daromad solig‘ini qaysi sanagacha to‘lashlari lozim?**

- \*A) 1 aprel
- B) 1 may
- D) 1 iyun
- E) 1 sentabr

**10. Ishchining ish xaqidan soliqni ushlab budgetga o‘tkazish kimga yuklatilgan.**

- \*A) Ish beruvchiga.
- B) Ishchiga.
- D) Soliq idoralariga.
- E) Bank xodimiga.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Soliq nima?
2. Daromad solig‘ining to’lov stavkasi necha foiz.
3. Davlat budgetining asosiy xarajatlari qaysi sohaga kup yo’naltirilgan.
4. Ijtimoiy soliq bo‘yicha imtiyozlar .
5. Mol mulk va yer solig‘I bo‘yicha imtiyozlar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati  
Asosiy adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
2. Yuldashev A.,Soliq va soliqqa tortish..: “Iqtisod -Moliya”, 2022.
3. Ishmuhammedov.A.E, va boshq. Makroiqtisodiyot. –T.: “Toshkent”, 2020.

**Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. “Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va buniyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. –Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696 son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida (yangi tahrirda). O‘RQ-404-son, 13.04.2016 y.

#### **Axborot manbaalari**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi portalı
2. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz) – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
- 3.[www.norma.uz](http://www.norma.uz) – axborot-huquqiy portal
- 4.[www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) – Soliq to’lovchilar sayti.





